



## DISTRIBUTION OF ELEMENTS OF MATERIAL AND INTANGIBLE CULTURE THROUGH TRADE EXCHANGE OF MERCHANT CARAVANS IN THE LOWER AMUDARYA REGION”

A.B. Djoldasov

Senior Lecturer, PhD, Nukus, Karakalpak State University, UZ

+998 (93) 487-80-88

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18468274>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> January 2026

Accepted: 30<sup>th</sup> January 2026

Online: 31<sup>st</sup> January 2026

### KEYWORDS

Lower Amu Darya, merchant caravans, trade exchange, tangible culture, intangible culture, cultural continuity, cross-border communication, the Great Silk Road, caravan routes, inter-civilizational influence.

### ABSTRACT

*In this article, the issue of the formation and spread of elements of material and non-material culture as a result of the activities of ancient and medieval trade caravans passing through the territory of the Lower Amu Darya region is scientifically analyzed based on historical, archaeological, and cultural approaches. The study examines the geopolitical and geoeconomic significance of the region, the processes of cultural integration arising through trade routes, religious and ritual values, craft traditions, elements of lifestyle, as well as the mechanisms of oral folk art and linguocultural interaction. Caravan routes are assessed as a complex civilizational bridge, providing not only an economic trade channel, but also intercultural mediation and the exchange of ideas. The conclusions of the article scientifically substantiate the role of the Lower Amu Darya region in the formation of transregional cultural dynamics.*

## “QUYI AMUDARYO MINTAQASI HUDUDIDA SAVDOGAR KARVONLARINING SAVDO ALMASHINUVI ORQALI MODDIY VA NOMODDIY MADANIYAT UNSURLARINING TARQALISHI”

A.B. Djoldasov

PhD. Qoraqalpoq davlat universiteti

katta o'qituvchisi. +998 (93) 487-80-88

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18468274>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> January 2026

Accepted: 30<sup>th</sup> January 2026

Online: 31<sup>st</sup> January 2026

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada Quyı Amudaryo mintaqasi hududidan o'tgan qadimgi va o'rta asrlardagi savdo karvonlari faoliyati natijasida moddiy va nomoddiy madaniyat unsurlarining shakllanishi va tarqalishi masalasi tarixiy, arxeologik hamda madaniyatshunoslik yondashuvlari asosida ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda mintaqaning geosiyosiy va geoiqtisodiy ahamiyati, savdo yo'llari orqali yuzaga kelgan madaniy integratsiya jarayonlari, diniy-marosimiy qadriyatlar, hunarmandchilik*



## KEYWORDS

*Quyi Amudaryo, savdogar karvonlari, savdo almashinuvi, moddiy madaniyat, nomoddiy madaniyat, madaniy uzviylik, transchegaraviy muloqot, Buyuk Ipak yo'li, karvon yo'llari, sivilizatsiyalararo ta'sir.*

*an'analari, turmush tarziga oid unsurlar, shuningdek, xalq og'zaki ijodi va til-madaniy o'zaro ta'sir mexanizmlari o'rganiladi. Karvon yo'llari nafaqat iqtisodiy savdo kanalini, balki madaniyatlararo vositachilikni, g'oyalar almashinuvini ham ta'minlagan murakkab sivilizatsion ko'priklar sifatida baholanadi. Maqola xulosalarida Quyi Amudaryo hududining transregional madaniy dinamika shakllanishidagi o'rni ilmiy asoslangan holda yoritiladi.*

2024 Quyi Amudaryo mintaqasi tarixiy-geografik jihatdan Sharq va G'arb o'rtasidagi yirik transkontinental savdo tarmoqlarini bog'lovchi muhim strategik hududlardan biri bo'lib, u nafaqat iqtisodiy almashinuv, balki madaniy integratsiya uchun ham asosiy makon vazifasini bajargan<sup>1</sup>. Mintaqaning geografik o'rni, Amudaryo deltasining qulay tabiiy-mintaqaviy sharoitlari, qadimgi davrlardanoq karvonlarning to'xtash, oziqa va suv bilan ta'minlanish, shuningdek, xavfsiz tranzit harakat amalga oshirish nuqtayi nazaridan beqiyos imkoniyat yaratgan<sup>2</sup>. Shu boisdan ham Quyi Amudaryo qadimdan ko'chmanchi chorvadorlar, o'troq dehqonchilik madaniy markazlari va transregional savdogarlar yo'llari kesishgan ijtimoiy-madaniy markazlardan biri sifatida shakllangan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, mintaqadan o'tuvchi savdo karvonlari orqali nafaqat ipak, teri, qurol-yarog', yog'och, don mahsulotlari, metall buyumlar va zargarlik buyumlari kabi moddiy ne'matlar almashinuvi amalga oshirilgan, balki diniy tasavvurlar, marosim-madaniy an'analar, xalq og'zaki ijodi, hunarmandchilik texnologiyalari va til-muloqot elementlarining ham turli madaniy makonlarga kirib borishi yuz bergan<sup>3</sup>. Ayniqsa, Zardushtiylik, Buddaviylik, Islom kabi diniy tizimlarning yoyilishida ham savdo karvonlarining aloqadorlik darajasi yirik ilmiy adabiyotlarda e'tirof etiladi<sup>4</sup>.

Ushbu hududda moddiy va nomoddiy madaniyat unsurlari almashinuvi ikki yo'nalishda namoyon bo'lgan:

1. **transregional** – Markaziy Osiyoni Qozog'iston dashtlari, Ural bo'yi va Sharqiy Yevropa bilan bog'lovchi savdo-sivilizatsion ko'priklar tarzida;
2. **intralokal** – mahalliy aholining turmush tarzi, me'morchilik, kiyinish madaniyati, marosimiy-elementlari va xalq hunarmandchiligi.

Shu nuqtayi nazardan Quyi Amudaryo mintaqasi savdo almashinuvining oddiy geografik hududi emas, balki madaniy sintez va uzluksiz madaniy dinamika shakllanuvchi tarixiy-kulturologik maydon sifatida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi mintaqaviy madaniy merosning kelib chiqishi, tarqalish mexanizmlari va tarixiy-madaniy qatlamlarning sivilizatsiyalararo aloqalar

<sup>1</sup> V.V. Bartold. "Sochineniya". T. II. (1963). Moskva: Nauka.

<sup>2</sup> S.P. Tolstov. "Drevniy Khorezm". Moskva-Leningrad: (1948). AN SSSR.

<sup>3</sup> M.E. Masson. "Karavannie puti Sredney Azii". (1955). Tashkent: Fan.

<sup>4</sup> E.V. Rtveladze. "Velikiy shelkovyy put' v Sredney Azii". (1999). Tashkent: Sharq.



kontekstida qayta o'rganilishi zarurligi bilan belgilanadi. Bugungi globallashuv jarayonlarida madaniyatlararo integratsiyaning tarixiy ildizlarini tahlil qilish mintaqaning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotidagi uzviylikni baholashga yordam beradi. Shu boisdan tadqiqotning predmeti sifatida savdogar karvonlari vositachiligida kechgan madaniy almashinuvlar tizimi, obyekt sifatida esa Quyi Amudaryo mintaqasidagi moddiy va nomoddiy madaniyat unsurlari belgilandi.

Quyi Amudaryo makoni qadimdan turli sivilizatsion oqimlar kesishgan chorraha sifatida shakllangan bo'lib, mintaqaning iqtisodiy imkoniyatlari va geografik joylashuvi savdo tizimining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lgan. Qadimiy Xorazm davlatlari faoliyati, Amudaryo deltasining ekogeografik sharoitlari, sug'orma dehqonchilik va chorvachilik uyg'unligi savdo almashinuvi uchun doimiy infratuzilmaviy zamin yaratgan. Shu sababli savdo karvonlari mazkur hududdan o'tishda faqat tranzit maqsadlarini ko'zlamagan, balki mintaqada ichida iqtisodiy-madaniy integratsiya jarayonlarining faollashuviga ham xizmat qilgan.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, Quyi Amudaryo hududi Sharqiy Yevropa dashtlaridan Markaziy Osiyoning ichki vohalariga o'tuvchi tabiiy darvoza sifatida qadrlangan<sup>5</sup>. Bu omil ko'chmanchi chorvadorlar bilan o'troq dehqonchilik madaniyatiga ega aholining iqtisodiy hamkorlik shakllarini vujudga keltirgan. Aynan shu madaniy chegaraviy zonada moddiy va nomoddiy madaniyat unsurlari almashinuvi kuchliroq xarakter kasb etgan. Savdo-karvon harakati natijasida yangi texnologiyalar (metallsozlik, to'qimachilik, teri ishlash), me'moriy shakllar va qurilish uslublari, diniy-marosimiy amaliyotlar, kiyinish madaniyati va bezak buyumlari, xalq og'zaki ijodi namunalarning semantik qatlamlari hududdan tashqi madaniy ta'sirlar vositasida boyib borgan<sup>6</sup>.

Mintaqa shu tariqa "madaniyatlar almashuvi koridori" sifatida mustahkamlanib, uning madaniy fenomeni faqat ichki taraqqiyot emas, balki tashqi ta'sirlarning sintezi orqali shakllanganini ko'rsatadi<sup>7</sup>.

**Karvon savdosi va moddiy madaniyat unsurlarining uzatilishi.** Karvon yo'llari bo'ylab moddiy madaniyat unsurlarining tarqalishi, avvalo, iqtisodiy almashinuv mexanizmlaridan kelib chiqadi. Savdogarlar tomonidan olib kelingan mahsulotlar faqat iste'mol uchun emas, balki mahalliy madaniyatga integrallashgan holda yangi hunarmandchilik tarmoqlari rivojiga turtki bergan. Masalan:

- Metall buyumlar – qurolsozlik va zargarlik san'atining rivojlanishiga xizmat qilgan;
- Ipak va matolar – kiyinish uslublari tashqi estetik namunalarning singishiga sabab bo'lgan;
- Keramika va sopol buyumlar – dekorativ-bezak san'atining tipologik takomillashuviga olib kelgan;
- Ot jihozlari va chorvachilik anjomlari – ko'chmanchi madaniyatdan o'troq aholiga madaniy transferni ta'minlagan.

Etno-madaniy jarayonlar nuqtayi nazaridan, moddiy madaniyat transferi ko'proq adaptiv sintez shaklida kechgan: tashqi elementlar mahalliy an'ana, ijtimoiy-iqtisodiy

<sup>5</sup> Ya.G. Gulyamov. "Drevnyaya irrigatsiya nizovyev Amudari". (1957). Tashkent: AN UzSSR.

<sup>6</sup> A. Berdimuratov. "Kul'tura i iskusstvo Khorezma". (2005). Nukus: Qaraqalpaqstan.

<sup>7</sup> K. Bozorov. "Madaniyatlararo aloqalar tarixi va nazariyasi". (2012). Toshkent: Universitet nashriyoti.



model va dunyoqarash tizimiga moslashgan. Natijada Quyi Amudaryoda o'ziga xos madaniy-hunarmandchilik maktabi yuzaga kelgan.

Nomoddiy madaniyat unsurlarining tarqalishi va ularning ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi Quyi Amudaryo mintaqasida savdogar karvonlari faoliyati faqat moddiy madaniy buyumlarning emas, balki nomoddiy madaniy meros elementlarining ham keng miqyosda tarqalishiga sabab bo'lgan. Nomoddiy merosning karvon yo'llari orqali tarqalish mexanizmi ko'proq bevosita ijtimoiy muloqot, iqtisodiy sheriklik, diplomatik aloqalar va diniy-ma'rifiy g'oyalar almashuvi orqali amalga oshgan<sup>8</sup>. Bunday almashinuv shakllari turli xalqlar o'rtasida ma'naviy yaqinlik va ijtimoiy birlashuv tamoyillarini kuchaytirgan.

**Diniy-ma'rifiy qarashlarning tarqalishi.** Karvon yo'llari qadimgi e'tiqodlar, zardushtiylilik, buddaviylilik, keyinchalik esa islom tamaddunining tarqalishida ham muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa IX–XII asrlarda Quyi Amudaryo hududi orqali Sharqdan G'arbgga diniy kitoblar, tasavvufiy ta'limotlar va ilm-ma'rifat maktablari an'anasi keng yoyilgan<sup>9</sup>. Karvon yo'llari bilan birga ilmiy risolalar, diniy-falsafiy qarashlar, marosim-madaniyat unsurlari hududda qabul qilinib, mahalliy ijtimoiy qatlam tomonidan qayta talqin etilgan. Bu jarayon mintaqani ma'naviy vositachilik makoniga aylantirgan.

**Xalq og'zaki ijodi va badiiy timsollarning tarqalishi.** Karvonchilar o'rtasida xalq og'zaki ijodi namunalarning almashinuvi keng ko'lamda kechgan. Sayyohlar, rivoyatchilar, qissaxonlar va qozilar o'zaro muloqot chog'ida afsona, rivoyat, dostonavislik an'analari orqali yangi syujet va timsollarni mintaqaga olib kelgan. Ular mahalliy folklor tizimiga qo'shilib, sintezlashgan holda yangi badiiy qatlamni shakllantirgan. Masalan:

- epik qahramon timsoli (alp, bahodir, donishmand),
- marosimiy qo'shiqlar va ohanglar,
- mifologik dunyoqarash elementlari savdo almashinuvi bilan birga "ma'naviy import" shaklida kirib kelgan.

**Urf-odatlar va marosim-madaniyat sintezi.** Karvon yo'llari orqali tarqalgan nikoh an'analari, mehmondo'stlik qoidalari, savdo etiketi va diniy marosim elementlari mahalliy madaniyatni boyitgan<sup>10</sup>. Mehmondo'stlik va ixcham diplomatik muomala ko'chmanchi va o'troq xalqlar o'rtasidagi tinchlikning asosiy kafolati sifatida shakllangan. Bu jarayonlar natijasida ko'chmanchi jamoaviylik qadriyatlarini, o'troq jamiyatning marosimiy murakkab modeli o'zaro sintezga uchragan.

**Til va terminologik ta'sir.** Savdo munosabatlari til birliklari va atamalar migratsiyasiga ham sabab bo'lgan. Karvonchilar orqali iqtisodiy, hunarmandchilik va diniy sohalarga oid ko'plab terminlar turkiy, fors-tojik, arab va hatto slavyan ildizlariga ega shakllarda kirib kelgan. Bu tilshunoslik nuqtayi nazaridan leksik sivilizatsion qatlamlarning shakllanishi deb baholanadi.

<sup>8</sup> G.A. Pugachenkova. "Arkhitektura Sredney Azii". (1971). Moskva: Iskusstvo.

<sup>9</sup> A.B. Djoldasov. "Quyi Amudaryo karvon yo'llari bo'ylab madaniy integratsiya jarayonlari". (2022). Nukus: QDU nashriyoti.

<sup>10</sup> A. Saidov. "Markaziy Osiyoda sivilizatsiyalararo muloqotning tarixiy asoslari". (2020). Toshkent: Ijtimoiy fikr.



**Karvonlar vositasida madaniy integratsiyaning ijtimoiy-falsafiy va sivilizatsion tahlili.** Quyi Amudaryo mintaqasida savdogar karvonlari orqali amalga oshgan madaniy almashinuv jarayonlari nafaqat iqtisodiy va infratuzilmaviy tizimning rivoji, balki keng ko'lamli sivilizatsion integratsiya jarayonlarining shakllanishiga ham sabab bo'lgan. Mazkur hududning "chegaraviy madaniyatlar makoni" sifatida namoyon bo'lishi, unda turli sivilizatsion qatlamlarning o'zaro sintezlashishiga keng imkon yaratgan. Shu bois karvon yo'llari faqat transport-kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki transkultural o'zaro ta'sirning faol platformasi sifatida baholanadi.

**Ko'chmanchi va o'troq madaniyatlar sintezi.** Quyi Amudaryo hududi chorvador ko'chmanchi turk va qipchoq qabilalari bilan sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq aholi madaniyatining kesishgan nuqtasida joylashgan. Karvon savdosi ushbu ikki madaniy model o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirgan holda ijtimoiy-madaniy uyg'unlikning shakllanishiga xizmat qilgan. Bu sintez quyidagi sohalarida yaqqol namoyon bo'ladi:

Soha	Ko'chmanchi omil	O'troq omil	Natija
Ijtimoiy tuzilma	Jamoaviylik, harbiylashgan tartib	Mahalliy boshqaruv, mehnat taqsimoti	Aralash ijtimoiy boshqaruv modeli
Marosim-madaniyat	Mobil marosim tizimi	Murakkab rasmiylashgan an'analar	Sinkretik marosim shakllari
Hunarmandchilik	Chodirsozlik, teri buyumlari	Kulolchilik, to'qimachilik	Texnologik almashinuv
Qadriyatlar	Sadoqat, jasurlik	Mehnatkashlik, bosqichlilik	Ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi

**Sivilizatsion chegaraning madaniy markazga aylanishi.** Aksariyat tarixiy tadqiqotlarda chegaraviy hududlar konflikt maydoni sifatida talqin etiladi. Biroq Quyi Amudaryoda ushbu hududlar aksincha madaniy vositachilik zonasi vazifasini bajargan.

Karvon almashinuvi tufayli mintaqa tashqi madaniy oqimlarni qabul qiluvchi, ularni qayta talqin qiluvchi va boshqa hududlarga eksport qiluvchi tarqatuvchi markaz sifatida shakllangan.

Bu holat mintaqani "passiv qabul qiluvchi" emas, balki "aktiv madaniy yaratuvchi" maqomiga ega qilgan. Karvonlar orqali kechgan madaniy integratsiya jarayoni ijtimoiy-falsafiy jihatdan "**madaniyatlar dialogi**" tushunchasi bilan izohlanadi. Unda ikki asosiy mexanizm kuzatiladi:

1. **Diffuziya** – tashqi madaniy elementlarning kirib kelishi va joriy etilishi;
2. **Transmadaniy sintez** – bu elementlarning mahalliy madaniyatga moslashishi va yangi madaniy shakl yaratishi.

Shu bois Quyi Amudaryo hududi nafaqat madaniy tranzit yo'li, balki yangi madaniy shakllanish markazisifatida tarixiy qiymat kasb etadi.

**Madaniy integratsiya natijasining hozirgi meros tizimidagi ifodasi.** Bugungi kunda mintaqada saqlanib qolgan marosimlar, xalq og'zaki ijodi namunalaridagi motivlar, me'moriy shakllar va hunarmandchilik uslublarida ushbu tarixiy jarayonlarning izlari



aniq ko'zga tashlanadi. Karvonsaroylar, rabotlar, qo'rg'onlar va savdo maskanlari o'tmishdagi madaniy almashuvning moddiy xotirasi bo'lsa, urf-odatlar, rivoyatlar, kuy va uslublar esa nomoddiy xotira shaklidir.

## References:

1. В.В. Бартольд. *“Сочинения”*. Т.. (1963). Москва: Наука.
2. С.П. Толстов. *“Древний Хорезм”*. Москва-Ленинград: (1948). АН СССР.
3. М.Э. Массон. *“Караванные пути Средней Азии”*. (1955). Ташкент: Фан.
4. Э.В. Ртвеладзе. *“Великий шелковый путь в Средней Азии”*. (1999). Ташкент: Шарк.
5. Я.Г. Гулямов. *“Древняя ирригация низовьев Амударьи”*. (1957). Ташкент: АН УзССР.
6. А. Бердимуратов. *“Культура и искусство Хорезма”*. (2005). Нукус: Каракалпакстан.
7. К. Bozorov. *“Madaniyatlararo aloqalar tarixi va nazariyasi”*. (2012). Toshkent: Universitet nashriyoti.
8. Г.А. Пугаченкова. *«Архитектура Средней Азии»*. (1971). Москва: Искусство.
9. А.В. Djoldasov. *“Quyí Amudaryo karvon yo'llari bo'ylab madaniy integratsiya jarayonlari”*. (2022). Nukus: QDU nashriyoti.
10. A. Saidov. *“Markaziy Osiyoda sivilizatsiyalararo muloqotning tarixiy asoslari”*. (2020). Toshkent: Ijtimoiy fikr.